

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA XALQ MAQOLLARINI O'RGANISH USULLARI**Sherova Dilafro'z Abdurahimovna***Namangan Davlat Universiteti Ta'lim tarbiya nazariyasi
va metodikasi(boshlang'ich ta'lim) 2-kurs magistranti***Annotatsiya**

Ushbu maqolada “Boshlang'ich sinif o'qish darslarida xalq maqollarini o'rganish usullari” haqida so'z boradi. Chunki maqollarda chuqur mazmun, mehnatkash xalq donoligi, milliy anana, uzoq asrlik hayot tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari haqidagi fikri, bahosi, mehnat natijalari mujassamlashgan. Shuning uchun maqollar manguqlikka daxldordir. Maqollar ko'p jihatdan matallarga o'xshasa ham, ularning har qaysisi o'ziga xos xususiyatga ega.

Kalit so'zlar

qonun, maqol, metal, xalq donishmandligi, milliy anana, uzoq asrlik hayot tajribalari, vatanparvarlik, insonparvarlik.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo'nalishlarini belgilab berdi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ta'limni tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berildi. Unda “Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratadi”, deb ko'rsatilgan. Shuningdek, dasturda: “Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy yo'qov – uslubiy majmualarini yaratish va o'qov – tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash” umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi.

Mustaqillikdan keyin ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada anchagina ishlar ham amalga oshirildi. O'quvchilarimiz ham endi ancha zukko, topqir va qiziquvchan yoshlarga aylanib borishmoqda. Bu esa o'z navbatida pedagoglarni yanada o'z ustilarida ishlash va malakalarini oshirishga turtki bo'lmoqda. Bugunning bolasi uchun eski uslubdagi darslar oddiy va quruq darslar bo'lib tuyulishining sababi shundaki, ular texnika taraqqiy etib borayotgan zamon bilan hamnafas yashashmoqda va fikrlashmoqda.

Maqollar o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining qadimiy janrlaridan biridir. Ularda xalqimizning duneqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati va axloqiy normasi o'z ifodasini topadi. Maqol-mantiqiy mushohada namunasi, odob va axloq qoidalarining o'zida jamuljam etgan dono gapdir. Ular qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, fikr- o'ylarining ifodasi sifatida yashab kelganlar, sinalgan, turmush tasdig'idan o'tgan tushunchalarni ifodalab, unga qanot baxsh etganlar. Maqollarning talim-tarbiyaviy ahamiyati kuchli. U kishilarni ogohlantiradi, maslahat beradi, mehnatni ulug'laydi, illatlarni hajv ostiga olib, fosh etadi. Ko'ramizki, maqollarda chuqur mazmun, mehnatkash xalq donoligi, milliy anana, uzoq asrlik hayot tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari haqidagi fikri, bahosi, mehnat natijalari mujassamlashgan. Shuning uchun maqollar manguqlikka daxldordir. Maqollar ko'p jihatdan matallarga o'xshasa ham, ularning har qaysisi o'ziga xos xususiyatga ega. «Temirni qizig'ida bos», «Birlashgan o'zar birlashmagan tuzar», «Er yigitga ikki nomus-bir o'lim» kabilar tom manoli maqollar bo'lib, ularning mazmunida tugal fikr, umumiy xulosa bor. «Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi», «Tosh qattiqmi, bosh qattiq», «Ko'rgan bilan eshitgan bir emas» kabilar matallar hisoblanadi. Chunki ularning mazmunidan umumiy xulosa, tugal fikr anglashilmaydi, balki xususiy belgining o'zigina ifodalangan. Maqollar xalq tushunchasi, hayot tajribalari, mulohazalarining umumlashma xulosasigina bo'lib qolmay, haqiqatning obrazli ifodasi, u yeki masala ustidan chiqarilgan hukmdir. Maqol hajmi ixcham, kichik bo'lib, puxta ishlangan, keng manoni ifodalovchi obrazli nutq namunasi. Maqolda ortiqcha gap so'z bo'lmaydi. Xar bir so'z aniq, o'z o'rnida ishlatilgan va ahamiyatli bo'lib, o'ziga xos ritm, ohang, kompozitsiyaga ega.

XI asr qomusi hisoblangan M. Qoshg'ariyning «Devonu lugatit turk» asarida keltirilgan maqollarda o'sha zamon ruhi, duneqarashi, kishilarning mehnatga munosabati turli xil shakllari o'z ifodasini topgan. Maqollar o'zbek xalq og'zaki ijodining qadimiy ommaviy janrlaridan biridir. Bolalar xalq og'zaki ijodida maqollar yetakchi o'rinda turadi. Xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur va tugal ma'noli gaplar maqol deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aqlu farosati hamda turmush tajribasi, donishmandligi mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiqchuguni tatib ko'rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, oliyjanob, dono, mehnatkash kishining biror voqea hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan umumlashma xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa hayotda hammaga yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratiladi. Ular asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib kelgan. Maqollar xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati, axloqiy normasini, tarixi va ruhiy holatini ifodalaydi. Maqollar o'zining tuzilishi jihatidan qisqa, lo'nda, puxta, mantiqli, fikran tugallangan bo'ladi. Ular qadimdan xalq

donishmandligi, aql-idroki, fikro'ylarining ifodasi sifatida yashab kelgan. Maqollar, matallar, aforizmlar kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongini o'stiradi, ularni to'g'ri, rostgo'y mehnatsevar, mard, jasur, sabotli va matonatli bo'lishga o'rgatadi. Biror jumla, gap shaklida kelgan maqolda ortiqcha so'z bo'lmaydi. Har bir so'z aniq, o'z o'rnida ishlatiladi. Fikrni qisqa, aniq qilib ifodalashga o'rgatadi. Maqollar ma'nosining teranligi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari bilan farq qiladi. Shu sababdan ular bolalarni to'g'ri, mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, ixcham va lo'nda bayon qilishga o'rgatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ifodali o'qish va ifodali nutq malakalarini hosil qilish, uni takomillashtirishda dono xalqimiz tomonidan yaratilgan maqollardan ham foydalaniladi. Maqollarni o'rganish uchun maxsus dars soati ajratilmaydi. O'qish darslarida maqollardan o'rganilayotgan badiiy tekstning mazmuni va vazifalariga bog'lab, tekst mazmuni yuzasidan xulosa chiqarishda, mustaqil ishlarda foydalaniladi.

Birinchi sinf o'qish kitobida turli mavzuda maqollar berilgan:

1. Vatani borning baxti bor.
2. Ona yurtning -oltin beshiging.
3. Ona yurtning omon bo'lsa, Rangi ro'ying somon bo'lmas.
4. Qish g'amini yozda ye.
5. Vatan qadrini bilmagan, O'z qadrini bilmas.
6. Kitob -bilim bulog'i.
7. Bilimdan ortiq boylik yo'q.
8. Aqlning qayrog'i - bilim.
9. Yaxshilik qilsang - yaxshilik ko'rasan.
10. Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin.
11. Sog' tanda - sog'lom aql.
12. Ozodlik — obodlik.
13. Yurtim, deb yuzga kirdim.
14. Birliksiz kuch bo'lmas.
15. Bilimdan ortiq boylik yo'q.
16. Bilimliga dunyo yorug', bilimsizga-qorong'i.
17. Sog'liging boyliging.
18. Gap bilan shoshma, Ish bilan shosh.
19. Dili pokning -ishi pok.
20. Til- aql bezagi.
21. Yaxshi so'z boldan shirin.
22. Aql -Hasan, odob -Husan.
23. O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir.
24. Qadrlasang qadring oshar, qadrsizdan hamma qochar.
25. Sanamay sakkiz dema.
26. Aql -boylik kaliti.
27. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.
28. Yer boylikning onasi bo'lsa, otasi - mehnat.
29. Chiranma, g'oz, hunaring oz.
30. Halol mehnat - yaxshi odat, berar senga saodat.

kabi bir-biridan tarbiyaviy jihati yuksak maqollar o'rin olgan. Ularning har biri ulkan tarbiya o'chog'idir. Maqol xalq hayoti, orzu intilishlari va dunyoqarashini, ko'p asrlik tajribalarida sinovdan o'tkazib aks ettirishi tufayli, kundalik turmushimizda katta g'oyaviy tarbiyaviy ro'l o'ynaydi. Chunki maqolda aks etgan voqea -hodisa yo keskin tasdiq etiladi, yo inkor qilinadi. Demak, har bir maqol kishiga izchil g'oyaviy yo'nalish beradi, undagi fikrlarning yuksalishiga ko'mak beradi. Xalq maqolida shu xalqning tarbiyaviy qarashlari aks etgan ekan, bola tarbiyasida ham ijobiy o'sish jarayonlarini yuzaga chiqaradi.

Farzand adolat va ozodlik, tinchlik va hurlik, mardlik va bahodirlik, ezgulik, insonparvarlik do'stlik va mehnatsevarlik tushunchalarini o'z ong-u shuuridan o'tkaza boradi. Xalqning orzu umidlari vatanparvarlik, insonparvarlik xislatlari, ilm-u hunar, mehnatsevarlik, odob-axloqqa ezgulikka chorlaydigan, xullas insonni kamolotga yetaklaydigan barcha ijobiy fazilatlarini, maqollar o'z ta'siri ostida birlashtirgan bo'ladi. Shu sababdan ham maqollarning tarbiyaviy ahamiyati benihoya kattadir. Vatan haqidagi maqollarni eshitib, vataniga iliq mehr bilan qarashga o'rganadi. Vatan ostonadan boshlanadi. Biz oila ostonasida qadam qo'yib, ulg'ayar ekanmiz, oilada vatan hissini tuya boshlaymiz. Maqollarimizda esa vatanga muhabbat, uni sevish va qadrlash bosh mavzu hisoblanadi. Chunki xalq hamma vaqt o'z

vatanini sevgan, ardoqlagan va uning dushmanlariga qarshi kurash olib borgan. Vatani borning baxti bor, Ona yurtning -oltin beshiging, Ona yurtning omon bo'lsa, Rangi ro'ying somon bo'lmas, Vatan qadrini bilmagan, O'z qadrini bilmas. Yurtim, deb yuzga kirdim kabi maqollarda vatanparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Ushbu maqollarni tinglagan, yod olgan uning mag'ziga yetgan farzand vatanga mehr hislari uyg'ona boshlaydi.

Maqollar donishmandlik ramzi. Ular o'quvchilarni chuqur fikrlashga, fikrni ixcham va aniq, obrazli qilib ifodalashga o'rgatadi, yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi, urf-odatlariga sodiq, xalq merosini ko'z qorachig'iday asrash ruhida tarbiyalashda juda muhim vosita vazifasini o'taydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ifodali o'qish va ifodali nutq malakalarini hosil qilish, uni takomillashtirishda, lug'at boyligini oshirishda dono xalqimiz tomonidan yaratilgan. Maqolda kishilarning o'zaro so'zlashish odobiga qat'iy rioya qilishlari, aytadigan har bir so'zi (gap) ni avval o'ylab, so'ng so'zlashi zarurligi ifodalangan. O'ylamay aytilgan so'z kishini uyaliq qolishiga sabab bo'lishi mumkin. "So'zlaganing kumush bo'lsa, tek turganing-oltin", "Aytilgan so'zxo'jayining, aytilmagan so'z-xizmatkoring". "So'zni ko'ngilda pishirmaguncha tilga kelturma. Va har nekim, ko'ngilda bor-tilga surma" (A.Navoiy).

O'qish darslarining barchasida maqollardan foydalanish, o'quvchilarni maqollar bilan tanishtirish orqali ularga ta'lim bilan bir vaqtda tarbiya beradi. Bolalarni do'stlikka, birodarlikka o'rgatuvchi, ularni ahil-inoq bo'lishga chorlovchi, do'stlikning buyuk kuch ekanligini ifodalaydi. Odob-axloq, bilimning afzalligi, bunday xislatlar insonni buyuk inson bo'lishiga xizmat qiluvchi ekanligini o'rgatuvchi maqollar: Bilim – boylik kaliti. Oltin olma – duo ol. Oldin o'yla – keyin so'yla. Olim bo'lsang, olam seniki. Sog' tanda – sog'lom aql. Sen o'zingni maqtama, Seni birov maqtasin. O'zbek xalq maqollarida Ona-Vatanni sevisish hamda uni har qanday ichki va tashqi dushmandan saqlash motivi asosiy o'rinni egallaydi. Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqat, uni qadrlash g'oyasi obrazli tarzda ifoda etiladi. Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni.

Xalq maqollari eslab qolish uchun qulay shakl va tuzilishga ega. Xotirada mustahkam o'rtnashadi. Maqollarning asl vositasi tarbiyaga qaratilgandir. Xalq donishmandligining ibratli namunalari sifatida tarbiyaviy jarayonlarda xizmat qilib kelmoqda. Maqollarda, bolaning aziz ne'mat bo'lib dunyoga kelishi-yu, uning barkamol farzand bo'lib voyaga yetishidagi harakatlar nimadan iborat ekanligiga doir, tarbiyaning barcha ko'rinishlarini ifoda etgan g'oyalar mujassamlashgan. Maqollar xalqning uzoq davrlar mobaynida, o'z tajribasidan o'tgan, ming karra sinalgan donolik qomusi bo'lib, u kishilarni ezgulikka, olijanoblikka undashi; insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, sershijoat, serg'ayrat intilish bilan, tinch-totuv yashashga chorlashi bilan, hamma vaqt hayot darsligi bo'lib xizmat qilaveradi. Ota-onalar donishmand xalqimiz yaratib bergan to'g'ri yo'lni o'z farzandlariga ham ko'rsata olsalar, ko'zlangan maqsadga erishgan bo'lardi. Ota - onalar farzandining tarbiyasidagi kamchilik va yutuqlarni sezib, kamchiliklarni yo'q qilishda, farzandidagi noo'rin harakatlarni bartaraf etishda, yaxshi xislat va fazilatlarni o'stirishda maqollarimizning beminnat xizmatidan foydalanishi darkor. Maqollarimiz har bir kishiga ibrat namunalari haqida so'zlar ekan, demakki, bolaning ham ertangi kelajak yo'lida yaxshi ibrat ko'rsatib yashashga chorlashi haqiqatdir. Ular shunchaki to'qima, o'ylab chiqilgan so'zlar emas, xalqning boshidan o'tkazgan, o'zi ko'rib xulosa chiqargan, tajribalar sinovida toblangan xalq donishmandligining bizga qoldirgan buyuk me'rosidir. Uni asrab avaylash, qalbimiz to'riga joylash, xalqimiz pand-u nasixatlariga quloq solib yashash, bizning hayot maktabida olayotgan ta'lim va tarbiyani mukammal egallashimizga zamindir. Maqollarni har bir farzand mutolaa qilar ekan u nafaqat yodida, balki qalbida o'rtnashib qoladi. Shuning uchun oilada bolalarga maqollarni yod oldirish, uning asosiy mazmun va mohiyatlarini tushuntirish kerak.

Xulosa qilib aytganda, maqollar yosh avlodni komil inson ma'nan va jismonan barkamol bo'lishi bilan birga o'quvchilarga rostgo'ylik, do'stlik, hunar egallash, mehnatsevarlik, vatanparvarlik singari fazilatlarni singdirishda juda muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Xullas, ularni Vatanimiz kelajagi uchun jon fido qila oladigan komil insonlar bo'lib yetishishlarida muhim vosita bo'ladi. Xalq og'zaki ijod namunalari orqali o'quvchilar ezgulik, to'g'riso'zlik, sofdillik, nafosat, do'stlik, o'rtoqlik, ahlilik haqidagi tasavvurga ega bo'ladilar. O'quvchilarni o'z nutqlarida maqollardan, hikmatli so'z va iboralardan foydalanishga, so'zlarni to'g'ri tanlashga, gap qurilishidan (so'zlarning bir-biriga bog'lanishidan) to'g'ri foydalanishga o'rgatish talab etiladi. O'qish darslarida o'quvchilarning so'zlarni adabiy qoidalarga muvofiq talaffuz etishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shomaqsudov Sh. Shorahmedov Sh. "Hikmatnoma" O'zbek maqollarining izohli lug'ati. –Toshkent: "O'qituvchi", 1990.
2. G'afforova T. Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. –Toshkent, Sharq, 2019.
3. Qosimova K. Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldoshova Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent, Noshir nashriyoti, 2009.

4. O'zbek bolalar adabyoti antologiyasi. I-II-jildlar. To'plovchi Safo Matjon. Toshkent, Cho'lpon, 2006.
5. M.Pardayeva, O. Musurmonqulova, A.Qo'shmonov "O'quvchilarning ta'lim va tarbiyasidagi muhit: muommo va yechim" metodik qo'llanma. Toshkent-2015.
6. O'zbek xalq maqollari. Toshkent 2012.
7. "O'zbek xalq maqollari" T.Mirzayev, A. Musaqulov. Toshkent (2005).
8. <http://www.ziyonet.uz/>
9. <http://www.pedagog.uz/>
10. <http://www.edu.uz/>